

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining
2023-yil davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqida
HISOBOTI**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparatiga korrupsiyaga oid 2 408 ta murojaat kelib tushgan shundan 1 834 tasi “Ishonch telefoni”, 182 tasi pochta orqali, 155 tasi vazirlikning elektron pochta, 88 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 63 tasi vazirga murojaat portali orqali kelib tushgan bo‘lsa, 86 tasi shaxsiy qabulda qabul qilingan.

Mazkur murojaatlarning 336 tasi qanoatlantirildi, 2080 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan, 10 tasi anonim deb topilgan va 22 tasi ko‘rilmasdan qoldirilgan.

Hududlardagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan jami 939 ta murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning 334 tasi edo.ijro.uz., 51 tasi maxsus aloqa kanallari, 132 tasi ijtimoiy tarmoqlar va 445 tasi davlat organlari va tashkilotlari orqali kelib tushgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar o‘z murojaatida eng ko‘p rahbar xodimlar faoliyatidan norozilik (1347 ta), moddiy yordam va ustamalar (1523 ta), ishdan bo‘shatish (157 ta), huquqbuzarliklarning oldini olish (320 ta) bilan bog‘liq masalalarni ko‘tarishgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaat qilishga majbur etayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf qilish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tunu kun murojaat qilishi uchun “Vazirga murojaat” portali tashkil etildi (4 180 ta murojaat kelib tushgan).

Murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalarni hal etish bo‘yicha barcha darajadagi rahbarlarning hisobotini har oyda eshitib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, tashkilot rahbarlariga aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berildi, “Yo‘l xarita” va chora- tadbirlar dasturi ijroga qaratilib, murojaatlarni o‘z vaqtida hal etish, ularni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik hamda buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari sifatida qaralishi haqida barcha darajadagi rahbarlar bilan kafolat xatlari (majburiyatnoma) rasmiylashtirildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurash va
huquqiy nazorat boshqarmasi**